
“Saxovat va ko’mak” jamg’armasi mablag’lari hisobidan tumandagi kam ta’minlangan oilalarni qo’llab-quvvatlash uchun pul mablag’lari ajratildi

“Saxovat va ko’mak” jamg’armasi mablag’lari ijtimoiy himoyaga muhtoj, ko’p farzandli oilalarga, nogironligi bo’lgan shaxslarga va yolg’iz qariyalarga, o’z daromadini yo’qotgan vaqtincha ishsiz bo’lgan shaxslarga pul mablag’lari, kundalik iste’mol tovarlari, dori vositalari va boshqa mahsulotlar bilan ta’minlash uchun ishlatalishi belgilangan.

Tuman hokimligi va tuman sektor rahbarlariga o’z sog’lig’ini tiklash, oilasiga moddiy yordam ko’rsatish kabi mazmunda fuqarolardan murojjatlar kelib tushgan.

“Temir daftar” va “Ayollar daftari”ga kiritilgan oilalar va fuqarolarga bir martalik moddiy yordam ko’rsatish, mehnatga layoqatli ishsiz a’zolari mavjud ehtiyojmand oilalarning bandligini ta’minlash, ularga moddiy yordam ko’rsatish, sog’ligini tiklashga “Saxovat va ko’mak” jamg’armasi mablag’laridan 142 nafar fuqarolarga jami 331.827.000 so’m moddiy yordam ajratilgan.

2023-12-07 11:24:27